

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Geografiya kafedrası

Qo`lyozma huquqida

Abdumajidova (Hojimetova) Nigora Hamidullayevna

**AHOLINING YOSH-JINS PIRAMIDASINI VA AHOLI TAKROR BARPO
BO`LISHI**

(Andijon viloyati misolida)

5140600- geografiya ta`lim yo`nalishi bo`yicha
akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: katta o`qituvchi Z. A. Temirov

Andijon - 2015 yil

KIRISH	3
BIRINCHI BOB. AHOLI YOSH-JINS TARKIBINI O'RGANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	6
I.1 Aholining yosh va jinsiy tarkibi.....	6
I.2 Aholining yosh-jins piramidasi va takror barpo bo'lishi.....	22
I.3 Aholining keksayishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.....	26
IKKINCHI BOB. ANDIJON VILOYATI AHOLISI YOSH-JINS TARKIBI VA AHOLI O'SISHI.....	33
II.1. Viloyat aholisi yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlar.....	33
II.2. Aholi yosh-jins tarkibining hududiy tafovutlari.....	39
II.3. Aholi yosh- jins tarkibi o'zgarishi va aholi takror barpo bo'lishi.....	43
HULOSA.....	48
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	51
ILOVALAR.....	53

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Aholining yosh va jinsiy tarkibini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Aholining yosh tarkibini aniq bilish mehnat resurslarini hisoblab chiqishga va kelajakda qancha aholi bo'lishligini bilishga yordam beradi. Yana shuni ta'kidlash joizki, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab yoshidagi bolalar, nafaqa yoshidagi aholining hozirgi va kelajakdagi sonini aniqlash, turli jins va yoshdagi aholi uchun zarur bo'lgan keng iste'mol mollarni ishlab chiqarishni rejalashtirishni aniqlash imkonini beradi.

Mamlakatda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida demografik vaziyat va uning ijtimoiy - iqtisodiy oqibatlari ko'p qirrali, dolzarb muammolardan biridir. Chunki bozor munosabatlarining markazida inson shaxsi, uning individual imkoniyatlari turadi. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohatlar va tub o'zgarishlar yo'lidan rivojlanib borishini ta'minlaydi. Jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanuvchi mazkur omil o'z navbatida uni rivojlantirish va taraqqiy ettirishda muhim ahamiyatga ega.

Bunday vaziyatda Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "...demografiya sohasidagi real ahvolni, aholining mavjud turmush darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda odamlarni ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora – tadbirlarni oldindan amalga oshirish kerak"¹.

Andijon viloyati mamlakatda o'ziga hos demografik vaziyatga va salohiyatga ega viloyat hisoblanadi. Viloyatda aholining yosh va jinsiy tarkibida o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlarni o'rganish viloyatda demografik vaziyatning hozirgi holati va kelajakdagi rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq bilib olish imkoniyatini beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda demografiya va xususan aholi geografiyasi (demogeografiyasi) fanining rivojlanishiga Y.S.Timm,

¹ Karimov I.A. "O'zbekiston ijtimoiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lidan" T., "O'zbekiston", 1995, 11 bet.

A.A.Shoroxova, M.Q.Qoraxonov, I.R.Mullajonov, Z.N.Akramov, G.Asanov, T.E. Rayimov, A.Soliyev, O.Otamirzayev, A.A.Qayumov, M.R.Bo`riyeva va boshqa ko`pgina olimlar katta hissa qo`shdilar.

Andijon viloyati aholisining geografik xususiyatlari M.Mamajonov, R. Qodirovlar tomonidan ancha mukammal o`rganilgan. Hozirgi vaqtda viloyat aholisi geografiyasi M. Atajonov va boshqa bir qator yosh tadqiqotchilar tomonidan aholi geografiyasining regional jihatlarini o`rganilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishning tadqiqot ob'yekti va predmeti. BMI ning tadqiqot ob'yektini Andijon viloyatining aholisi, predmetini esa viloyat aholisining yosh va jinsiy tarkibi tashkil etadi. Unda viloyat aholisining yosh va jinsiy tarkibining geografik jihatlarini tahlil qilindi.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi va vazifalari. Andijon viloyati aholisi yosh va jinsiy tarkibini o`rganishga bag`ishlangan mazkur bitiruv malakaviy ishning **asosiy maqsadi** viloyat aholisining yosh va jinsiy tarkibi, yosh jins piramidasini tuzish va tahlil qilish. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** yechishga harakat qilindi:

- viloyat aholisining yosh tarkibidagi o`zgarishlarni tahlil qilish;
- aholi jinsiy tarkibidagi tafovutlarni o`rganish;
- aholi yosh va jinsiy tarkibining hududiy tafovutlarini yoritib berish;
- aholining yosh va jinsiy tarkibining kelgusidagi takror barpo bo`lishida ahamiyatini yoritib berish.

BMI ning ilmiy yangiliklari quyidagilarda o`z aksini topgan:

-Andijon viloyati aholisining yosh va jinsiy tarkibi BMI doirasida ilk bor o`rganildi;

-Yosh va jinsiy tarkibdagi tafovutlar va o`zgarishlar, shahar va qishloq aholi punktlari doirasida hududiy tafovutlar tahlil qilindi;

-aholining yosh va jins piramidasini tuzildi;

-viloyat aholisi yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlarga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

BMI dagi ma'lumotlar iqtisodiy va iqtisodiy geografiya kurslarini o'rganishda o'lkashunoslik materiallari sifatida hamda mustaqil ishlarni bajarishda foydalanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish "kirish", "asosiy qism" va "hulosa"dan iborat bo'lib, asosiy qism ikki bob va olti baddan iborat. Bitiruv malakaviy ish 52 sahifadan iborat. BMI da 16 ta jadval va 2 ta diagramma va 1 ta rasm keltirilgan. Bitiruv malakaviy ishni bajarishda ish mavzusiga bevosita bog'liq bo'lgan adabiyotlardan, internet materiallaridan va Andijon viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlaridan keng foydalanildi.

BIRINCHI BOB. AHOLI YOSH-JINS TARKIBINI O'RGANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

I.1 Aholining yosh va jinsiy tarkibi

U yoki bu alomatlar bo'yicha ma'lumotlar aholini ro'yxatdan o'tkazishda va demografik hodisalarni hisobga olishda inobatga olinadi. Ushbu alomatlar bo'yicha aholi tarkibi haqidagi umumlashgan ma'lumotlar tuziladi. Lekin, demograf uchun aholining takror barpo bo'lishiga bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan aholi tarkibi va tavsiflari qiziqarlidir, chunki ulardagi o'zgarishlar bevosita va eng katta ta'sir qiluvchilardir. Bunday tarkiblar, yuqorida aytilganidek, «demografik tarkiblar» deb yuritiladi. Demografik tavsiflar unchalik ko'p emas: jins, yosh, nikoh va oilaviy holati, shuningdek, yuqorida aytilgan vital hodisalar tavsifi. Demografik o'zgaruvchilar ichida birinchi o'rinlar jins va yosh, oila (uy xo'jaligi) tavsiflariga tegishlidir. Demografik tarkiblar ichida esa aholining — jins, yosh va nikoh-oila tarkiblariga tegishli bo'lib, ular bilan biz quyida tanishib chiqamiz. Aholining nikoh va oilaviy tarkibi bilan esa «Nikoh va ajralishning demografik mohiyati» va «Oila va uning demografik taraqqiyoti» boblarida ko'rib chiqiladi. Tanishishni, avvalo, aholining jinsiga ko'ra tarkibdan bilan boshlaymiz.

Aholining jinsiy tarkibi. Aholining jinsiy tarkibini o'rganish muhim demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Aholining jinsiy tarkibini yoritishdan oldin «jins» tushunchasiga to'xtalib o'tamiz.

Biologiya fani jinsni jinsiy ko'payishni ta'minlab beruvchi organizmning genetik, morfologik va fiziologik xususiyatlarining jamlanmasi sifatida ko'rib chiqadi.

Insonga nisbatan jins odam tanasining (genetik, morfologik va fiziologik) reproduktiv, hulqiy, ijtimoiy, ijtimoiy-ruhiy va ruhiy alomatlarining majmuasi sifatida ko'rib chiqiladi, ular insonni erkak yoki ayol sifatidagi shahsiy biologik va ijtimoiy maqomini belgilab beradi.

Jins yetarli darajadagi «odatiy» alomat bo'lib, unga ta'rif berishda ba'zan ma'lum bir qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin. Lekin, ushbu muammoli holatlarning

vujudga kelish ehtimoli juda kam. Ko‘pchilik hollarda inson nafaqat o‘zining, balki boshqalarning ham jinsini yetarli darajada oson aniqlay oladi. 1-jadvalda inson jinsini aniqlashning turli jihatlari keltirilgan bo‘lib, ular turli fanlarning predmetini qamrab oluvchi jinsning kompleks tushuncha sifatidagi murakkabligini ochib beradi.

So‘nggi yillarda «biologik jins» va «ijtimoiy jins» tushunchalarini farqlash yo‘nalishi vujudga keldi. Ayniqsa, ijtimoiy jins «gender» nomi bilan atalmoqda, uning asosini esa erkaklar va ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei tashkil qiladi. Bunga qarshi o‘laroq «biologik jins»ni oddiy qilib «jins» deb atashmoqda.

1-jadval

Inson jinsining turlari

Nomi	Alomatlar tavsifi
Genetik jins	Hujayralardagi XX (ayol jins) yoki XY (erkak jins) xromosamalarning mavjudligi
Gonad jins	Jinsiy bezlarning tuzilishi (tuxum va tuxumdonlar)
Garnet jins	Jinsiy bezlarning spermatozoidlar yoki tuxum hujayralarini isilab chiqara olish qobiliyati
Gormonal jins	Jinsiy bezlarning erkak (androgen) yoki ayol (estrogen) jinsiy gormonlarini isilab chiqarish vazifasi
Morfologik (somatik) ichki va tashqi jins	Ichki reproduktiv organlar va tashqi genetaliya- lar (genital tashqi ko‘rinish)ning tuzilishi
Askriptiv (yozib qo'yil- gan), fuqarolik jinsi	Bolaning tug‘ilgandagi tashqi ko'rinishi
Jins tarbiyasi	Bolani aksriptiv jinsiga mos ravishdagi tarbiyalanishi bo'yicha jinsi
Pubertat jins	o‘z ichiga androgenlar va estrogenlar ishlab chiqarilishini oluvchi jinsiy yetuklikdagi xususiyatlar (pubertat gormonal jins), gormonlar ta’siri ostida shakllanuvchi ikkilamchi jinsiy alomatlar (pubertat morfologiya) va erotik hissiyotlar (pubertat erotizm)
Ruhiy jins yoki jinsiy o‘zini-o‘zi anglash	Individning o‘zini erkak yoki ayol sifatida anglab yetishi
Ijtimoiy jins	Erkak yoki ayolning jamiyatdagi jinsiy o‘rni

Manba: Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 72 b

Aholining jins tarkibi — aholining erkaklar va ayollarga taqsimlanishidir. Demografiyada jinsiy tarkibni tasavvur qilishning quyidagi ikkita yondashuvidan foydalaniladi:

- Birinchisi, jami aholi yoki ayrim yosh guruhlaridagi erkaklar va ayollar mutlaq soni va ulushining oddiy hisobi;
- Ikkinchisi, jami aholi yoki ayrim yosh guruhlaridagi erkaklar sonining ayollar soniga nisbati (yoki aksincha).

Odatda, jinslar nisbati erkaklar sonining har 100 yoki 1000 ayolga to'g'ri keladigan nisbati orqali hisoblab chiqilishi bilan aniqlanadi (yoki kam hollarda ayollar sonining har 100 yoki 1000 erkakka to'g'ri keladigan nisbati ham olinadi).

Aholining jins tarkibi uchta omilning birgalikdagi ta'siriga bog'liq bo'ladi: tirik tug'ilganlar orasidagi o'g'il bolalar sonining qiz bolalar soniga nisbati; differensial o'lim darajasi, ya'ni turli yosh guruhlaridagi erkaklar va ayollar o'rtasidagi o'lim darajasining farqi; migratsiya jadalligidagi jinslar farqi. Birinchi omil (jinslarning ikkilamchi nisbati) barcha aholi uchun amaliyotda bir xil va o'zgarmasdir, shuning uchun bu yerda asosiy rollar differensial o'lim darajasi va migratsiya jadalligidagi jinslar farqiga tegishli bo'lib, ular mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liqdir.

Demografiyada jinslar nisbatining birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi turlarini farqlash qabul qilingan.

Jinslarning birlamchi nisbati ostida urig'lantirishdagi erkak garnet (homila) sonining ayollar soniga nisbati tushuniladi. Avvallari ushbu nisbat taxminan 100 ayol homilalariga nisbatan 125-130 erkak homilalari to'g'ri keladi, deb hisoblangan². Lekin, XX asrning oxirgi o'n yilliklarida ushbu dalilni shubha ostiga qo'yadigan ma'lumotlar vujudga keldi. Jinslarning birlamchi nisbati bevosita hisoblanishi mumkin emas. Odatda jinslarning birlamchi nisbatini aniqlashda tirik tug'ilganlar orasidagi jinsiy farqlar, ona qornidagi kech o'lim

² Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 73 b

holati va tabiiy abortlar haqidagi ma'lumotlarni hisoblashga asoslangan bilvosita usuldan foydalanish qabul qilingan. Ushbu usuldan foydalanishga asoslangan maksimal baholashdagi jinslarning birlamchi nisbati 170 ta erkak homilasiga 100 ta ayol homilasi to'g'ri kelishi aniqlangan, lekin odatda, ular pastroq. Xususan, zamonaviy, qat'iy uslubiy ma'lumotlar ushbu ko'rsatkich kattaligini 115 ga teng kelishini ko'rsatmoqda. Biroq, ushbu barcha baholashlar asosan mavhumiy tavsifga ega bo'lib, bu tushib qolish ehtimoli katta bo'lgan urug'lantirishning birinchi haftalari o'lim xavfidagi jinslar farqi to'g'risidagi ma'lumotlarning yetarli bo'lmaganligi bilan izohlanadi.

Ayrim mualliflarning fikricha, homiladorlikning oxirgi bosqichlarida erkak homilalarining o'lim darajasi yuqori bo'lsa, ayol embrionlari uchun urug'lanirishning birinchi haftalarida o'lim xavfi yuqori bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, hozirgi vaqtda homiladorlikning boshlang'ich bosqichlarida jinslar farqidagi o'lim darajasi to'g'risida yetarli darajadagi batafsil ma'lumotlar mavjud emas. Aytish joizki, jinslarning ikkilamchi nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni, kech ona qornidagi o'lim darajasini va tabiiy abortlari birlamchi jinslar nisbatiga nisbatan ekstropolyatsiya qilish mumkin emas. Muqobil yondashuvga asoslangan, X va Y xromosomalarga ega mos ravishdagi spermatozoidlar sonining nisbatini aniqlashga asoslangan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, jinslarning birlamchi nisbatini 100 ga teng bo'lishi mumkinligini ta'kidlash imkonini beradi.

Bugungi kunga qadar jinslarning birlamchi nisbatini bevosita hisoblashning imkoni mavjud emas. Homiladorlikning ikkinchi oyida erkak embrionlarining soni ayol embrionlarining soniga nisbatan katta bo'lishi haqidagi dalil har qanday mulohazalardan xoli. Bu holat erkak urug'lanishlar sonining yoki homiladorlikning birinchi bosqichlarida ayol embrionlarida o'lim darajasining yuqoriligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu omillarning ta'siri ostida jinslarning ikkilamchi nisbati shakllanadi.

Jinslarning ikkilamchi nisbati — bu tirik tug'ilganlar orasida o'g'il bolalar sonining qizlarga nisbatidir. U asosiy biologik o'zgarmas konstanta bo'lib

hisoblanadi va taxminan 100 nafar qizga o'g'il bolalarning 105-106 ta tug'ilishi nisbatiga teng yoki boshqa so'z bilan aytganda, har 1000 ta yangi tug'ilgan chaqaloqlarga doimo taxminan 512 nafar o'g'il bola va 488 nafar qiz bola to'g'ri keladi³.

Jinslarning ikkilamchi nisbatida doimiy kattalik bo'lishiga qaramasdan bir qator omillar ta'siri bilan o'zgarib turadi. Xususan, nikohsiz bolalar o'rtasidagiga nisbatan nikohdagilar orasida o'g'il bolalar soni ko'proq boladi. Tug'ilganlar orasidagi o'g'il bolalar hissasi onalar yoshining ulg'ayishi va tug'ilish tartib raqamining o'sishi bilan kamayib boradi. Masalan, 20 yoshgacha bo'lgan onalarda har 100 ta qizaloqqa 130 ta o'g'il bola to'g'ri keladi, 38-42 yoshdagi onalarda esa u atigi 90 ni tashkil qiladi, xolos.

Yaqin o'tmishdagi urushlarda jinslarning ikkilamchi nisbatining kamayishi, shu jumladan, urush tugagandan so'ng uning ortishi dalili ajabtovur hodisa sifatida qaralgan. Urush davrida homiladorlikni ko'tarib yurish sharoitlarining o'zgaruvchanligi, ona qornidagi o'lim darajasidagi jinsiy farqlar tibbiyotchilar, statistlar va demograflar tomonidan ilmiy isbotlab berilmaguniga qadar bunga hatto qandaydir sirli hodisa sifatida qaralgan.

Urush davrida ushbu sharoitlar yomonlashadi, bu esa ona qornidagi o'lim darajasining ortishiga olib keladi, avvalambor, erkak homila va urug'lantirishlarda o'lim darajasining ortishiga olib kelib, bu esa o'z navbatida, jinslarning ikkilamchi nisbatini kamaytirib yuboradi. Bundan tashqari, harbiy harakatlar davrida ota-onalar o'rtasida yoshi kattalar hissasi ortib ketadi, bu ham homiladorlikni ko'tarib yurish sharoitlarini yomonlashtiradi. Urush tugagandan so'ng ota-onalar yosh tarkibining yosharishi orqali homiladorlikni ko'tarib yurishning sharoitlari yaxshilanadi.

Umuman olganda, jinslarning ikkilamchi nisbatidagi tebranishlar ona qornidagi bolaning o'lim darajasidagi o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi, u esa, o'z navbatida, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va sanitar-gigienik sharoitlar bilan belgilanadi. Aynan shuning uchun vaqt o'tishi bilan jinslarning ikkilamchi nisbati

³ Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 74 b

xuddi rivojlangan mamlakatlarda kam rivojlangan mamlakatlarga nisbatan uning soni katta bo'lgani kabi ko'tarila boshlaydi. Biroq, demograflar jinslarni ikkilamchi nisbatining mayl omili ta'sirida vujudga kelganligi, ya'ni bevosita urug'lanish jarayoniga atayin ta'sir o'tkazish va homiladorlik davrida bo'lajak bolaning jinsini to'g'rilash maqsadida harakatlar qilinganligi sababli katta qiziqish uyg'otadi. Aytish joizki, bu hodisa ko'p bolalikning ijtimoiy me'yorlari saqlanib qolgan va ko'p o'g'il bolalar ko'rishni hohlaydigan mamlakatlarda keng tarqalmoqda. Bunday mamlakatlarga Xitoy, Janubiy Koreya va Singapurni kiritishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlarda jinslarning ikkilamchi nisbatining kattaligi tebranishlar doirasidan anchayin chetga chiqib ketgan, bu holat statistik xatoliklarning mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, ushbu mamlakatlarga nisbatan tadqiqotchilarning alohida e'tiborini tortmoqda. Janubiy Koreya, Tayvand va Singapurda XX asrning 80-yillarida jinslarning ikkilamchi nisbatining jadal o'sishi kuzatilgan va u 113:117 gacha etgan. Ushbu fenomen qadimdagi ko'p o'g'il bolalarni ko'rishni xohlaydigan an'analarning zamonaviy ko'rinishini aks ettiradi va qizlarning kamsitilishi, ya'ni sof mayl omili ta'sirining natijasi bo'lib yuzaga chiqadi.

Qadimda ushbu kamsitish qizlarning chaqaloqligi va bolaligidagi o'lim darajasining juda yuqori bolganligida o'z ifodasini topgan, bu holat ularning chaqaloqligi va bolaligi davridagi parvarishning juda yomon bo'lganligining natijasidir. Hozirda fan-texnika yutuqlari asrida esa an'anaviy reproduktiv ko'rsatmalar, agar tug'ilajak bolaning jinsi qiz bo'lishi kutilayotgan bo'lsa, sun'iy ravishda homiladorlikni to'xtatish amalga oshirilmoqda. Qizlarning tug'ilishidagi kamsitishning reproduktiv xulqi tug'ilishni kamaytirish siyosati ta'siri ostida yanada kuchaymoqda, bu esa aholining katta qismining intilishlariga qarama-qarshidir.

Amerikalik demograf D.Gudkindning ta'kidlashicha, Xitoyda amalga oshirilayotgan bir bolalik siyosati «ota-onalarni qiz tug'ilishini oldini olishning turli usullaridan uyg'unlashtirilgan holda foydalanishga yoki qiz tug'lishini yashirish: qizlardan voz kechish, tug'ilishlarni yoki oila tarkibini yashirish, hatto

qiz chaqaloqlarni o'ldirishga ham olib kelmoqda. Bunga qo'shimcha tarzda, tug'ruqqacha tashhis qilish sohasidagi zamonaviy yutuqlar ham ahamiyatli rol o'ynamoqda»⁴. Bu haqda faqat xitoylik mualliflarga emas, boshqa mamlakat ziyolilari ham yozishmoqda.

Tug'ruqqacha tashxis qilishning zamonaviy yutuqlari tug'ilajak bolaning jinsini boshqarish maqsadida Xitoy va boshqa Osiyo mamlakatlari aholisining ma'lum bir qismi tomonidan foydalanilmoqda. Tug'ilishni kamaytirish siyosati o'g'il bolani ko'p xohlashlikning yuqori darajasi saqlanib qolayotganligiga bog'liq ravishdagi kam bolali oilaga yo'naltirilganlikning o'sishi sharoitida ushbu amaliyot keng qo'llaniladi va test natijasi tug'ilajak bolaning jinsi qiz bola bo'lishi holatida, u sun'iy abortlar tebranishining o'sishiga olib keladi. Ayniqsa, bu bir yoki undan ortiq qizga ega tug'ilishning yuqori soni kuzatilgan oilalarga taalluqlidir. Ayrim tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, aynan Xitoyda ikki yoki undan ko'p qizlarga ega bo'lgan oilalar uchun jinslarning ikkilamchi nisbati 200 dan ham ortib ketmoqda. Xuddi shunday holatni kontinental Xitoydagi kabi tug'ilishni cheklashning qat'iy siyosati mavjud bo'lmagan Tayvand va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ham kuzatish mumkin.

Olimlar, jamoat arboblari va hukumatlar tomonidan sun'iy abortlarning o'sishiga olib keluvchi tug'ruqqacha jinsni aniqlash tashxisidan foydalanish holatlari salbiy baholanmoqda. Xususan, salbiy ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy natijalarni yuzaga keltirayotgan ushbu amaliyotni qattiq qoralash "Aholi va rivojlanish" to'g'risidagi Xalqaro konferentsiyada (Qohira, 1994 yil) qabul qilingan Dasturda ham o'z ifodasini topgan. Dasturda tug'ilajak bolaning jinsini aniqlashdagi texnologiyalardan foydalanishning ortishi jins bo'yicha selektsiyani (yangi tug'ilgan qiz chaqaloqlarni oldirish amaliyoti bilan birgalikda) «halokatli (zararli) va beadablik (madaniyatsizlik)» sifatida tavsiflanishi ta'kidlangan.

Ko'pgina mamlakatlarning hukumatlari tug'ruqqacha jinsning tashxisini amalga oshirish hamda u bo'yicha ma'lumotlar va xizmatlar olinishi, berilishi

⁴ Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 76 b

bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortuvchi qonunni qabul qilganlar. Shunga qaramasdan, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarning ko'rsatishicha, ushbu ta'qiqlarning samaradorligi u qadar yuqori emas, ularning mavjudligining o'zi esa ayrim amaldorlar va tibbiyot xodimlari tomonidan o'z xizmat vazifalaridan foydalanib, ta'magirlik qilish va boshqa su'iste'molliklarni qilinishiga olib kelmoqda.

Sun'iy abortlar orqali jins bo'yicha selektsiya qilishning ko'p yillik amaliyoti Xitoyda bir qator keskin demografik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning vujudga kelishiga olib keldi. Hozirgi kunda bu hodisa mamlakatda nafaqat jinslarning ikkilamchi nisbatidagi nomutanosiblikka, balki faol nikoh yoshlarida ham mutanosiblik buzilishiga olib keldi. Mamlakatda avvallari kuzatilmagan «kelinlar tanqisligi» vujudga keldi, buning natijasida yosh xitoylik yigitlarning katta qismi butun umrga bo'ydoq qolish istiqboli qarshisida qoldi. Bu o'z navbatida, jinoyatchilikning yangi turi — yosh qizlarni nikohga kiritish maqsadida o'g'irlanishining vujudga kelishini ta'minlab berdi. Shu o'rinda aytish joizki, Xitoyda kelinlar daromadli tovarga aylanib ulgurdi. Bu muammoning dolzarbligi ko'pgina mamlakatlardagi tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga tortmoqda. Olimlar dunyoda eng ko'p aholisi bo'lgan Xitoyda jinslar tengligi buzilishining salbiy oqibatlarini faol muhokama qilmoqda. Ushbu nisbatning buzilishi «bir oilaga bir farzand» siyosatining natijasi bo'ldi va uning oqibatida jins bo'yicha abort qildirishning ortishi va yoshligida qizlar o'lim darajasini ortirishiga olib keldi.

O'zbekistonda esa tug'ilishning kamayishi jarayoni XX asrning oxirlarida kuzatildi. Biroq, mamlakatda jinslarni ikkilamchi nisbatining buzilish holatlari kuzatilayotgani yo'q.

Jinslarning uchlamchi nisbati — bu reproduktiv yoshdagi yoki boshqa yosh guruhlaridagi erkaklar va ayollarning o'zaro tengligidir. Jinslarning birlamchi va ikkilamchi nisbatidan farqli o'laroq jinslarning uchlamchi nisbati yosh-jinsdagi differentsial o'lim darajasi xususiyatlari va migratsion harakatchilikka bog'liq ravishda tebranib turadi.

Jinslarning uchlamchi nisbati ikkilamchi nisbat bilan birgalikda demografiyaning qiziqishlari doirasiga kiradi, chunki aholining takror barpo bo'lish tavsiflari va ayrim demografik jarayonlar ularga bog'liq bo'ladi. Ular faol va istiqboldagi nikoh darajasiga, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlariga ta'sir o'tkazadi. Aynan shuning uchun demograflar umumiy aholining jinsiy tarkibini o'rganish kabi ushbu ko'rsatkichlarga alohida e'tibor beradilar.

Aholining yosh tarkibi .Aholining yosh tarkibi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlab aholining yosh tarkibini o'rganishdan oldin «yosh» tushunchasining mohiyatini ochib berish maqsadga muvofiq.

Yosh — bu insonning tug'ilishidan to uning hayotidagi u yoki bu daqiqasigacha oqib o'tgan vaqtdir. Yosh ikkinchi eng muhim demografik tavsiflardan biri bo'lib, u yillarda, oylarda (hayotning birinchi yillarida), haftalarda (hayotning birinchi oylarida), kunlarda va soatlarda hisoblanadi.

Yosh ob'yektiv tavsif bo'lishiga qaramasdan inson hayotining yosh davri konventsionaldir va umrni (hayotni) uzunligi (davomiyligi) evolyutsiyasi mobaynida o'zgarib kelgan. Bir asr muqaddam «keksalik» deb yuritilgan yosh hozirda «keksalikka kirish» yoki «o'rta yosh» deb hisoblanmoqda.

Demografik hodisalar doimo u yoki bu yoshda amalga oshadi. Bunda ularning amalga oshishidagi tebranish yosh o'tishi bilan o'zgaradi yoki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, uning vazifasi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun demografiyada yosh har qanday demografik hodisaning eng muhim tavsifi sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan o'lgandagi yosh (o'lim yoshi), nikohga kirish yoshi va bola tug'ish yoshi, deb nomlanuvchi yoshlar va hokazolar haqida gapiriladi.

Kuzatish vaqtidagi muayyan bir guruh kishilarning yoshi haqidagi ma'lumot aholining yosh tarkibini shakllantirish imkonini beradi.

Yosh barcha demografik jarayonlarning umumiy koordinatasi hisoblanadi, ularning universal, mustaqil o'zgaruvchisi bo'lib hisobga olinadi

va inson hayotidagi istalgan hodisalarni ro'yxatga (hisobga) olishda e'tiborga olinadi.

Yuqorida aytilganidek, yosh tug'ilgan vaqtdan so'ng oqib o'tgan vaqt bilan o'lchanadi. Biroq, demografiyada yoshning uchta ta'rifidan foydalaniladi: aniq yosh, yillar to'lgandagi yosh va kalendar yillarning farqi sifatida hisoblangan yosh. U yoki bu ta'rif mavjud ma'lumotlar va maqsadlarni hisobga olinishi bilan tanlanib, ular uchun yosh hisoblab chiqiladi.

Aniq yosh — imkoni boricha maksimal aniqlik bilan o'lchangan, tug'ilgan vaqtdan joriy daqiqagacha bo'lgan davr oralig'iga tengdir. Masalan, insonni tug'ilgan vaqtini aniq bilgan holda aytish mumkinki, qandaydir vaqtda uning yoshi 31 yil 4 oy 13 kun 7 soat 30 minut 28 sekundga teng.

Yillar to'lgandagi yosh — bu aniq yoshning to'liq sonlarga ega bo'lmagan qismidir, u oxirgi tug'ilgan kundagi aniq yoshiga tengdir. Aynan shu yosh bo'yicha odatda «Yoshingiz nechada?» degan savolga javob beriladi. Matematik jihatdan bu pastga qarab to'liq songacha qoldiq qismlar kattaligini hisobga olmasdan yaxlitlab yuborilishini anglatadi.

Kalendar yillarning farqi sifatida hisoblangan yosh o'z ta'rifidan ham nimani anglatishini bildirib turibdi. Agar kishining tug'ilgan yili ma'lum bo'lsa (masalan, 1979 yil), bunda uning kalendar yillar farqi bo'yicha yoshi joriy tug'ilgan yilning farqiga tengdir (masalan, $2010 - 1979 = 31$). Ta'kidlash joizki, kalendar yillar farqi sifatida hisoblangan yosh, agar tug'ilgan kunigacha hisoblab chiqilmasa yillar to'lgandagi yoshga teng bo'lmasligi mumkin. Haqiqatda «kalendar yillar farqi sifatidagi 31 yosh» jumlasini inson 30 yoki 31 yil to'lgandagi yoshga tengligini anglatadi yoki o'z ichiga 30 dan 32 yoshgacha bo'lgan yillarni oladi.

Yosh haqidagi ma'lumotlar aholini ro'yxatdan o'tkazish, maxsus tekshiruvlar, jumladan tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishlarni qayd qilish jarayonida olinadi. Bu masala nafaqat demograf uchun, balki boshqa ijtimoiy soha mutaxassislari uchun ham juda muhim, chunki yosh nafaqat demografiyada, balki deyarli barcha ijtimoiy jarayonlarda mustaqil o'zgaruvchi

sifatida yuzaga chiqadi.

Aholining yosh tarkibi — bu aholining yosh guruhleri va yosh kontingentlari bo'yicha taqsimotidir.

Aholining yosh tarkibi haqidagi ma'lumotlar ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlarni tadqiq qilish uchun kerak bo'ladi. Aholi yosh tarkibining xususiyatlarini anglash orqali istiqboldagi tug'ilish va o'lim tendentsiyalari, shuningdek, aholining takror barpo bo'lishi haqida ilmiy asoslangan mulohazalar chiqarish mumkin. Ushbu xususiyatlarni bila turib, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda u yoki bu muammolarning vujudga kelish ehtimolini baholash, mehnatga layoqatli aholi va ishchi kuchining dinamikasini prognozlashtirish, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, ularga bo'lajak talab, mintaqalarda saylovlarning natijalarini va shunga o'xshash masalalarni bilish imkonini beradi.

O'zbekiston aholisining hozirgi yosh tarkibi 90-yillarda boshlangan tug'ilish darajasining qisqarishiga qaramay yosh hisoblanadi. Ya'ni, aholi tarkibida 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar ulushi 62,1 %ni, 16 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushi 33,3 %ni, 16-29 yoshdagilar ulushi 28,8 %ni tashkil etadi⁵.

Aholining yosh tarkibini tuzish uchun odatda bir, besh, ba'zi hollarda o'n yillik oraliqlardan foydalaniladi.

Bir yillik yosh tarkibi — bu aholining quyidagi yillar to'lgandagi yosh guruhleri bo'yicha taqsimlanishidir: 0 yosh, 1, 2, ..., 34, 35, ..., 89, w yosh va undan kattalar. Q — bu qandaydir eng yuqori yosh bo'lib, uning asosida aholining bir yillik yosh guruhleri bo'yicha taqsimlanishi yakunlanadi. Oxirgi yosh guruhi (w yosh va undan kattalar) ochiq yosh oralig'ini tarkib toptiradi, bunda w ning aniq kattaligi yangi tug'ilgan bolaning kutilayotgan umr davomiyligining o'rtachasiga va katta yoshlardagi aholining soniga bog'liq bo'ladi.

Besh yillik yosh tarkibi quyidagi yosh guruhleri bo'yicha tuziladi: 0 yosh,

⁵ Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 81 b

1-4 yosh, 5-9 yosh, 10-14 yosh, 35-39 yosh, ..., 80-84 yosh, ..., 100 yosh va undan kattalar. Bu standart yosh guruhlanishi deb nomlanadi va xalqaro demostatistika amaliyotida qo'llaniladi.

O'n yillik yosh tarkibi quyidagi yosh guruhlariga bo'yicha tuziladi: 0 yosh, 1-9 yosh, 10-19 yosh, 20-29 yosh, ..., 60-69 yosh, 100 yosh va undan kattalar.

Yosh tarkibidagi umumiy tuzilmaviy o'zgarishlarni baholash uchun bundan yanada kattaroq yosh guruhlanishlari qo'llaniladi.

Xalqaro amaliyot va statistikada aholining yosh tarkibi iqtisodiy nuqtai nazardan uch guruhga ajratiladi:

- bolalar (0-14 yosh);
- mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (15-64 yosh);
- mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi (65 va undan yuqori yoshdagilar).

O'zbekiston milliy statistikasida aholi mehnatga layoqatliligi bo'yicha uch guruhga bo'linadi:

1. Mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi (0-15 yosh);
2. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (16-54 yoshdagi ayollar, 16-59 yoshdagi erkaklar);
3. Mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi (55 va undan yuqori yoshdagi ayollar, 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklar).

Aholi ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan yoshiga ko'ra 6 guruhga ajratiladi:

1. Bolalar (0-15 yosh) — mamlakat jami aholisining eng katta qismini tashkil etib, ularning aksariyati mehnat jarayonida ishtirok etmaydi. Ammo, ushbu aholi guruhining salmog'i mehnat salohiyatining kelgusi va istiqbol ko'rsatkichlarini belgilab beradi. Chunki, ushbu qatlamning yuqori chegarasidagi o'smirlar tez orada mehnat resurslari safiga qo'shiladi.

2. O'smir yoshlar (16-24 yosh) — mazkur guruhning katta qismi iqtisodiy nafaol aholi tarkibiga kirib, ular maktab, akademik litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlar, tug'ruq ta'tilidagi ayollar hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur guruh tarkibida iqtisodiyotning qator soha va tarmoqlarida band bo'lganlari ham mavjud bo'lib, ularning mehnat faoliyatlari aksariyat hollarda boshlang'ich ko'rinishga ega bo'ladi.

3. O'rta yoshlilar (25-30 yosh) — ular o'zining jismoniy holati va imkoniyatlari jihatdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, mehnatga layoqatli jami aholining asosiy qismini qamrab oladi. Bu guruh vakillari asosan o'zlarining aniq hayot yo'llarini tanlab olgan, o'z oilasiga ega bo'lgan va hayotda ma'lum bir yutuqqa erishgan hisoblanadi. Lekin, ularning barchasi ham iqtisodiyotda band bo'lmaydi, chunki ularning orasida yosh bolali onalar va ayollar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

4. 31-59 yoshdagi aholi — ushbu guruhdagi aholi o'zining yuksak mehnat shakliga ega bo'lib, hayotiy va mehnat tajribasining yuqori ko'rsatkichiga erishadi. Shu vaqtgacha olgan amaliy ko'nikma va tajribalarini ishlab chiqarish jarayonlariga safarbar etishadi va mehnat jamoasida alohida o'rin egallashadi. Bu toifa insonlar yoshlarga o'rnak va maslakdosh bo'ladi. Ushbu yosh chegaralari aholisining iqtisodiy faollik darajasi boshqa qatlamlarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Shuningdek, mazkur qatlamning yuqori chegarasida pensiya yoshiga yetgan ayollar ham bo'lib, ular o'zlarining mehnat faoliyatlarini yakunlash taraddudida bo'lishadi.

5. Qariyalar (60-70 yosh) — mazkur qatlam vakillari pensiya yoshiga yetgan aholi hisoblanib, ularning aksariyati pensiyada bo'ladi. Lekin, ularning orasida o'z mehnat faoliyatlarini davom ettirayotganlari ham bo'lib (ayniqsa, erkaklar), ular ham butunlay pensiyaga chiqish va mehnat faoliyatini yakunlash arafasida bo'lishadi.

6. Keksalar (70 va undan katta yosh) — ularning deyarli hammasi mehnat faoliyatidan chetlashgan bo'ladi.

Aholining yosh tarkibini o'rganishda yosh akkumulyatsiyasiga alohida e'tibor qaratish kerak. Chunki, aholini ro'yxatdan o'tkazishda va sotsiologik so'rovlarda yosh to'g'risidagi ma'lumotlarda xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin.

Yosh akkumulyatsiyasi — bu aholining ma'lum bir yoshlaridagi sonining qo'shnilariga nisbatan ko'proq yig'ilib qolishidir.

Yosh akkumulyatsiyasi odamlarning psixologik ta'sir ostida sonli o'zgaruvchilarni yaxlitlab yuborishga moyilligi ostida vujudga kelib, ular aniq sonlar o'rniga yaxlitlangan, yaqin bo'lgan kattaliklarni aytishadi. Ko'pincha yosh akkumulyatsiyasi «0» yoki «5» bilan tugaydigan yoshlarda ko'proq kuzatiladi, biroq bu holat «2» yoki «8» bilan tugaydigan yoshlarda ham uchraydi. Yosh akkumulyatsiyasining mavjudligi, tabiiyki, faqatgina bir yillik yosh guruhlari bo'yicha tuzilgan yosh tarkibidagina uchraydi. Besh va o'n yillik guruhlashlarda yosh akkumulyatsiyasi o'z-o'zidan soqit bo'ladi.

Aholini ro'yxatdan o'tkazish va so'rovlarda yosh to'g'risidagi ma'lumotlarning tizimli tarzda xato bo'lishi yosh akkumulyatsiyasiga olib keladi. Bu, ayniqsa, aholining madaniy darajasi (ayrim odamlar nafaqat o'z yoshini, balki o'zining tug'ilgan kunining aniq sanasini ham bilmasliklari mumkin) va yosh haqidagi savolga aniq javob berish xohishi bilan bog'liq (qariyalar va ayollarning tannozligi va h.k. vaziyatlar). Aholini madaniy darajasining o'sishi va uslubiy qoidalarga amal qilish yosh borasidagi xatoliklarning, natijada yosh akkumulyatsiyasining kamayishiga olib keladi.

Yosh akkumulyatsiyasi turli usullar yordamida o'lchanadi. Masalan, Uippl (Whipple) indeksi «0» va «5» bilan tugallanuvchi yosh akkumulyatsiyasini yoshlar bo'yicha nisbatini o'lchaydi. Mazkur indeks (I_w) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$I_w = \frac{\sum_{k=5}^{\infty} P_{5k}}{\frac{1}{5} * \sum_{23}^{62} P_x} * 100$$

bu yerda: $P_{5k} - P_{25}, \dots, P_{60}$ (25, 30,60 yoshdardagi aholi soni);

P_x — aholining 23 dan 62 yoshgacha bo'lgan bir yillik yosh intervallaridagi guruhlar soni.

Yosh tarkibini tahlil qilishda yosh kontingentlaridan ham foydalaniladi.

Yosh kontingenti — bu umumiy yosh, shuningdek, ayrim demografik,

ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa alomatlar bo'yicha birlashtirilgan shaxslar guruhidir⁶.

Insonning hayot davrini guruhlariga ajratish masalasi turli davrlarda yashagan olimlarni qiziqtirib kelgan. Masalan, qadimgi yunon matematigi Pifagor yil fasllari bo'yicha inson hayotini davrlarga ajratgan (2-jadval).

Jadvaldan ko'rinib turganidek, olim insonning bolaligini bahor, keksaligini esa qish fasliga o'hshatgan hamda shundan kelib chiqib davrlarga ajratgan.

2-jadval

Pifagorning yosh tasnifi

Yil fasli	Hayot davri	Yosh
Bahor	Bolalik	20 yoshgacha
Yoz	Yoshlik	20-40 yosh
Kuz	Yetuklik	40-60 yosh
Qish	Keksalik	60-80 yosh

Manba: Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 85 b

Aholishunoslik endiklopedik lug'atida inson umri quyidagi davrlarga bo'lingan (3-jadval).

3-jadval

Yosh tasnifi

Kalendar yosh	Inson hayoti davri
1-7 kun	Yangi tug'ilganlik
7 kun-1 yosh	Chaqaloqlik
1-3 yosh	Ilk bolalik
4-7 yosh	Birinchi bolalik
8-12 yosh (o'g'il bolalar)	Ikkinchi bolalik
8-11 yosh (qiz bolalar)	
13-16 yosh (o'g'il bolalar)	O'smirlik
12-15 yosh (qiz bolalar)	
17-21 yosh (o'g'il bolalar)	O'spirinlik
16-20 yosh (qiz bolalar)	
22-35 yosh (erkaklar)	Yetuklikning birinchi bosqichi

⁶ Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 84 b

21-35 yosh (ayollar)	
36-60 yosh (erkaklar)	Yetuklikning ikkinchi bosqichi
36-55 yosh (ayollar)	
61-74 yosh (erkaklar)	Qarilik
56-74 yosh (ayollar)	
75-90 yosh	Keksalik
90 yoshdan kattalar	Uzoq umr ko‘ruvchilar

Manba: Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 85 b

Yosh tasnifidan ko‘rinib turibdiki, inson umri ilk tug‘ilgan kunidan boshlab, umrining so‘ngiga qadar davrlarga ajratilgan.

Qator olimlar insonlarning umrini mehnatga layoqatiga qarab ham ajratgan. Masalan, demograf B.Urlanis inson umrini mehnat yoshiga qarab quyidagi guruhlariga ajratishni taklif qilgan (4- jadval).

4-jadval

B. Urlanisning yosh tasnifi

Insonning hayot davri	Yosh guruhi
Mehnat yoshigacha bo‘lgan davr	
Yasli yoshi	2 yoshgacha
Maktabgacha yosh	3-6 yosh
Maktab yosh	7-15 yosh
Mehnat yosh	
Yoshlik	16-24 yosh
Yetuklik	25-44 yosh
Kechki yetuklik	45-59 yosh
Mehnatdan keyingi yosh	
Qarilik	60-69 yosh
Ilk keksalik	70-79 yosh
Mo‘ysafid keksalik	80 va undan yuqori

Manba: Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 86 b

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turganidek, demograf olim B. Urlanis inson umrini mehnatga yoshigacha bo‘lgan, mehnat yoshi va mehnatdan keyingi davrlarga ajratgan.

Odatda, yosh tarkibi aholining jinsiy tarkibi bilan birgalikda tuziladi va ko‘rib chiqiladi. Bu holda u aholining yosh-jinsiy tarkibideb nomlanadi, u har bir jinsning yoshlar bo‘yicha taqsimlanishini, har bir yoshda yoki har bir yosh guruhlarida jinslarning nisbatini ko‘rsatib beradi.

I.2 Aholining yosh-jins piramidasi va takror barpo bo‘lishi

Aholining yosh va jinsiga ko‘ra tarkibini birgalikda va yaqqol namoyon etish

uchun yosh-jins piramidasi tuziladi.

Yosh-jins piramidasi ikki tomonlama chiziqli diagrammani o'zida aks ettirib, undagi aholi yosh va jins bo'yicha birgalikda taqsimlangan, bunda grafikning bir tomonida (o'ngdan) ayol jinsli aholi, ikkinchi tomonda esa (chap tomonda) erkak jinsli aholi aks ettiriladi. Diagrammaning vertikal o'qi yosh shkalasini o'zida namoyon etib, u bir yoki besh yillik intervallarga bo'linib, 0 yildan boshlanadi va yuqori yosh yoki ochiq yosh intervali bilan tugallanadi.

Gorizontal chiziqlar o'zida berilgan yosh va jinsdagi aholining umumiy sonini; aholining umumiy sonidagi berilgan yosh va jinsdagi aholining ulushini; berilgan yosh va jinsdagi aholi sonidagi faqat ushbu jinsning ulushini aks ettiradi. Bunda gorizontal chiziqlar maydoni (yoki teng miqdorda taqsimlangan yosh intervallarining uzunligini) aytib o'tilgan ko'rsatkichlarga teng bo'ladi.

Piramidalar aholining turli qismlarini qiyoslash va uning yosh- jins tarkibi xususidagi qiyosiy ma'lumotlarni olish maqsadida guruhlarining yosh-jins miqdori yoki ushbu sonlarning jami aholidagi ulushidan foydalanilgan holda tuziladi.


Yosh-jins piramidasi aholining muayyan vaqtdagi holatini aks ettiradi. Shuning uchun piramidadagi chiziqlarning nisbiy uzunligi bo'yicha tug'ilish va o'lim jarayonlarining aholining yosh tarkibiga ta'siri, aholi takror barpo bo'lishining istiqboldagi tendentsiyalari haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Masalan, muayyan bir yilda tug'ilganlar soni qo'shni yillarnikidan ko'p bo'lsa piramida bo'rtiq, agar tug'ilganlar soni qo'shni yillarnikidan kam bo'lsa botiq shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu deformatsiya yetuk va keksa yoshdagilar orasidan o'tayotib, deyarli butun yuz yillik davr davomida, toki ushbu tug'ilganlar jamlanmasining o'lib yo'q bo'lmaguniga qadar saqlanib qoladi.

1-rasmdan ko'rinib turganidek, 2009 yili O'zbekiston Respublikasi aholisining yosh-jins piramidasi botiq shakliga ega bo'lgan. Ya'ni, mazkur yili aholining yosh-jinsiy tarkibida 0-4, 5-9, 10-14, 15-19 yosh guruhidagi erkak va ayollarning soni yuqori bo'lgan.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida yillar davomida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlarida o'ziga xos o'zgarishlar ro'y berayotganligi, xalqning munosib turmush sharoitini yaratishga inilishi, omma o'rtasida homiladorlikdan saqllovchi tibbiy vositalarning keng tarqalishi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligining ortishi, har bir oila o'z iqtisodiy im- koniyatlaridan kclib chiqqan holda farzandlar tug'ilishini nazorat etishi kabi ijtimoiy- iqtisodiy va demografik omillar respublikada tug'ilish ko'rsatkichlarining pasayishiga olib kedi. Natijada aholining yosh tarkibida mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi soni kamaydi. Bu holat 2-rasmda yaqqol o'z aksini topgan.

1-rasm

O'zbekistonda aholining yosh-jins piramidasi (2009 yil)



Manba: **Manba: Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 89 b**

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2009 yili respublikada aholining yosh-jins tarkibida 0-4, 5-9 yosh guruhidagi erkak va ayollar soni keskin kamaygan, aksincha 10-14, 15-19 va 20-24 yosh guruhidagilar soni ortgan.

Demografiyada yosh-jins piramidalaridan foydalanishning eng muhim jihatlaridan biri — bu aholining takror barpo bo'lishi va yosh tarkibining o'zaro aloqadorlikdagi tahlilidir.

Aholining progressiv, statsionar va regressiv yosh tarkiblari 1894 yilda shved

demografi A.G.Sundberg tomonidan birinchi marta ilmiy iste'molga kiritilgan.

Ma'lumki, progressiv yosh tarkibida aholi soni ko'payadi, statsionarda aholi o'z sonini o'zgartirmaydi, regressivda esa qisqaradi. Aholining yosh tarkiblari 0-15 yoshdagi bolalar hamda 50 yoshdan va undan yuqori yoshdagi «qariyalar» ulushi bilan farqlanadi. A.G. Sundbergning tasnifi bo'yicha, progressiv yosh tarkibida bolalar ulushi 40%, qariyalar esa 10 foizni; mos ravishda statsionarda - 27 va 23; regressivda esa 20 va 30 foizlarni tashkil qiladi (5-jadval).

5-jadval

Aholi yosh tarkibining turlari, % hisobida

Yosh guruhlari	Yosh tarkibi		
	progressiv	statsionar	regressiv
0-14	40	27	20
15-49	50	50	50
50 va undan	10	23	30

Manba: Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 90 b

Aholining mazkur yosh tarkibi turlariga yosh piramidasining turlari mos keladi. Aytish joizki, yosh piramidasining turlari 1930 yillarda nemis statistigi F.Burgderfer tomonidan taklif qilingan.

Aholining yosh tarkibini iqtisodiy baholash nihoyatda muhim. Chunki, aholining iqtisodiy farovonligi mehnatga qobiliyatli yoshdagi ishdagi band bo'lgan aholining soni bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga tushadigan demografik yukni o'rganish lozim.

Demografik yuk koeffitsienti 3 turga ajratiladi:

- bolalarning yuk koeffitsienti;
- qariyalarning yuk koeffitsienti;
- bolalar va qariyalarning yig'indi yuk koeffitsienti.

Ma'lumki, demografik yuk koeffitsienti tadqiqotchi tomonidan

qabul qilingan yosh guruhiga bog'liq. Masalan, taniqli demograf Ernst Kan demografik yuk koeffitsientini hisoblashda nemis statistikasida qabul qilingan quyidagi yosh guruhlari sxemasiga asoslangan:

- bolalar (0-14 yosh);
- mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (15-64 yosh);
- qariyalar (65 yosh va undan yuqori).

I.3 Aholining keksayishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari

Aholining keksayishi hozirgi davrda zamonaviy demografik hodisa hisoblanib, garchi uning rivojlanish intensivligi turlicha bo'lsa-da, barcha mamlakatlar uchun xos bo'lmoqda. Aholining keksayishi aholi umumiy sonida ulug' yoshdagilar ulushining ortishi, yoshlar salmog'ining kamayishi, shu bilan bir vaqtda o'rta yoshdagi aholi sonining ko'payishida o'z ifodasini topadi. Ta'kidlash joizki, aholining keksayishi deganda, nafaqat bu yosh guruhidagi kishilar salmog'ining, balki mutlaq sonining ham ortishi tushuniladi. O'zbekistonda ham bugungi kunda jamiyat ijtimoiy- iqtisodiy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar demografik jarayonlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi: tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari keskin kamaydi, tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligi uzaydi. Buning natijasida aholining «keksayishi» jarayoni tezlashdi.

Fanda keksalik, uning dastlabki ko'rinishlari, keksalik yoshi va uning chegaralari kabi masalalar atrofida bahs-munozaralar anchadan beri olib boriladi, lekin so'nggi yillardagina bu masalalar iqtisodiyot, demografiya, sotsiologiya, gerontologiya kabi fanlarning jiddiy tadqiqot ob'yektiga aylandi. Chunki, aholining keksayish jarayoni bilan bir vaqtda keksa kishilarning ijtimoiy, fiziologik va biologik xarakteristikasida tub o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlarning silliqroq kechishi nafaqat sog'liqni saqlash tizimiga, balki jamiyatning boshqa tuzilmalariga - iqtisodiy, ishlab chiqarish, rekreatsiya, ijtimoiy ta'minot, oila va boshqalarga ham bog'liqdir.

Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti qarilikni insonning hayoti davomida

kechadigan o'zgarishlarni belgilovchi fiziologik jarayon, deb hisoblashni taklif qilgan⁷. Shu bilan birga, keksalikni kasallik bilan tenglashtiruvchi fikrlar ham keng tarqalgan. Biz bu fikrni to'g'ri emas, deb hisoblovchilar fikriga qo'shilamiz. Bizningcha, keksalik kishida namoyon bo'lgach, ular surunkali kasalliklarga tez-tez yo'liqadigan aholi guruhini tashkil etadilar, xolos. Chunki, inson organizmining jismonan qarishi oqibatida kishining tashqi o'zgarishlar va noqulay holatlarga moslashishi susayadi va u tez-tez kasalliklarga chalinadigan bo'lib qoladi. Kexsa kishi mehnatga layoqatsiz va o'zgalar yordamiga muhtoj bo'ladi.

Odatda, mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi pensiya yoshidagi aholi hisoblanadi. Bu yosh chegarasidan boshlab insonda jismoniy quvvatning zaiflashuvi, ish qobiliyatining susayishi ro'y beradi, uning ijtimoiy-iqtisodiy, jamiyat va oiladagi mavqeida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Shuning uchun ham iqtisodchilar aholining bu guruhini qariyalar guruhiga kiritadi.

Inson organizmida ro'y beradigan o'zgarishlar: jismoniy quvvatning zaiflashuvi, ish qobiliyatining susayishi, tashqi ta'sirlarga moslashish va javob reaksiyalarining sekinlashuvi va boshqalar 55-60 yosh chegarasidan yuzaga chiqqan boshlaydi. Demak, keksalik davrining boshlanishiga shartli ravishda O'zbekistonda belgilangan mehnatga layoqatli yoshning eng yuqori chegarasini asos sifatida olishni va mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi - 55 va undan yuqori yoshdagi ayollar, 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklarni qariyalar guruhiga kiritish mumkin, deb hisoblaymiz,

So'nggi yillarda inson umrining keksalik davrini tasniflash bo'yicha xilma-xil yondoshuvlar paydo bo'ldi. Masalan, gerontologlar tasnifiga ko'ra, 60-74 yoshdagilar - qariyalar, 75-84 yoshdagilar - keksalar, 85 va undan yuqori yoshdagilar - juda keksalardir, Butunjahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tasnificha, 60-74 yoshdagilar - qariyalar, 75-89 yoshdagilar - keksalar, 90 va undan yuqori yoshdagilar - uzoq umr

⁷ Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 93 b

ko'ruvchilar, deb hisoblanadi.

Bizningcha, bu mezonlarni dunyodagi barcha mamlakatlar aholisi uchun tadbiq etib bo'lmaydi. Keksalik yoshini bunday davrlarga bo'lishda har bir davlatdagi tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligi asos qilib olinishi lozim. Chunki, hozirda aholisi o'rta hisobda 35- 40 yil umr ko'radigan mamlakatlar ham bor. Masalan, dunyoda o'rtacha umr davomiyligi 67 yil bo'lsa, Mozambikda - 40 yil, Afg'onistonda - 43 yil, Zambiyada - 35 yil, O'zbekistonda - 71,8 yil, Norvegiyada - 80 yil, Yaponiyada - 82 yildan iboratdir.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida aholining yosh tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, bu davr dunyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ham aholi tarkibida bolalar ulushining kamayib, aksincha qariyalar ulushining ortib borishi bilan tavsiflanadi. Bu hol, o'z navbatida, aholining keksayish jarayoni boshlanganligini ko'rsatmoqda.

Demograf olimlar tomonidan aholining keksayish darajasini «qarish indeksi» yordamida baholash taklif etilgan. «Qarish indeksi» tushunchasi fanga taniqli demograf A.Sovi tomonidan kiritilgan. Fransuz demografi qarish indeksini mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi (qariyalar) sonining mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi (bolalar) soniga foizlarda hisoblangan nisbati orqali aniqlashni va aholining keksayish darajasini baholashda hozirda jahonning ko'pchilik mamlakatlarida foydalanilayotgan quyidagi demografik mezonni taklif qildi (6-jadval).

6-jadval

Aholining keksayish darajasi mezon

Bosqich	Aholining qarish indeksi,	Aholining qarish
I	20 dan kam	past
II	20-30	o'rta
III	30 dan baland	yuqori

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, aholining qarish indeksi 20 %dan kamni tashkil etsa, shu hudud aholisining keksayish darajasi past hisoblanadi. Agar qarish indeksi 30 %dan ortsa shu hudud aholisi yuqori darajada keksayayotgan hududlar qatoridan o‘rin oladi.

7-jadval

Aholi qarish jarayonining rivojlanish darajasiga ko‘ra keksalik tasnifi

Bosqich	Qariyalar salmog‘i (60 yosh va undan yuqori),	Qarish bosqichlari va aholining keksayish
I	8 dan kam	demografik yosh
II	8-10	qarish bo‘lag‘asida
III	10-12	haqiqiy qarish
IV	12 va undan yuqori	demografik qari
	12-14	demografik qarilikning boshlang‘ich bosqichi
	14-16	demografik qarilikning o‘rtacha bosqichi
	16-18	demografik qarilikning baland darajasi
	18 va undan yuqori	demografik qarilikning juda baland darajasi

Manba:Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 95 b

Muayyan hududda aholining keksayishi jarayonining rivojlanish darajasini baholashda belgilangan yosh chegarasidan yuqori yoshdagi aholi salmog‘i ko‘rsatkichidan foydalaniladi. Mazkur ko‘rsatkichning ortib borishi bilan shu hudud aholisi demografik nuqtai nazardan qari hisoblanishi mumkin. Shu munosabat bilan

ko'p mamlakatlardagi olimlar demografik qarilik to'g'risidagi masalani ko'tarmoqda. Masalan, fransuz demograflari Jaklin Bojyo-Garne va E.Rosset demografik qarilikni to'rt bosqichga ajratishni taklif qilgan (4.7-jadval).

7-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, muayyan hudud aholisi tarkibida qariyalar ulushi 8 %dan kamni tashkil qilsa, bu hudud aholisi demografik yosh, 12 %dan ko'p bo'lsa demografik qari hisoblanadi. Hozirgi kunda bu holat asosan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar jumladan , Crermaniya (24%), Frantsiya (23,7 %), Buyuk Britaniya (20,3%) va shu kabilarda kuzatilayot ganligining guvohi bo'lamiz.

BMT demograflari demografik qarish darajasini baholash maqsadida uch bosqichli shkala ishlab chiqqan (8-jadval).

8-jadval

Aholining keksayish shkalasi

Bosqich	65 va undan yuqori yoshdagilar ulushi, %	Aholining qarish darajasi
I	4 dan kam	demografik yosh
II	4-7	qarish bo'sag'asida
III	7 dan yuqori	demografik qari

Manba:Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011. 96 b

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, BMT demograflari aholining keksayish darajasini baholash uchun keksalik yoshining boshlanish chegarasmi asos qilib olgan va unga ko'ra, aholining yosh tarkibida 65 va undan yuqori yoshdagilarning ulushi 7,0 foizdan oshsa hudud aholisi demografik qari hisoblanadi. Agar dunyo mamlakat- larmi ushbu tasnif bo'yicha guruhlariga ajratsak, quyidagi holatni ko'ramiz. Unga ko'ra:

- 61 mamlakat aholisi demografik qari;
- 58 mamlakat aholisi demografik qarish bo'sag'asida;
- 73 mamlakat aholisi demografik yosh;

- 23 mamlakat haqida ma'lumot yetarli darajada emas.

Endi yuqoridagilarga asoslangan holda, O'zbekiston aholisining keksayish darajasini baholaydigan bo'lsak, fransuz demograflari tasnifi bo'yicha 60 va undan yuqori yoshdagilar aholining 6,0 foizini tashkil etadi va respublika aholisi demografik nuqtai nazardan yosh, BMT demograflari tasnifi bo'yicha esa 65 va undan yuqori yoshdagilar aholining 4,5 foizini tashkil etadi va respublika aholisi demografik qarish bo'sag'asida turibdi.

Aholining keksayishi juda uzoq vaqt davomida aholining takror barpo bo'lishidagi o'zgarishlar, aholi migratsiyasi va urashdan keyingi sanitar-demografik holatlar kabi murakkab omillar tufayli sodir bo'ladi. Bugungi kunda aholi keksayishi jarayonining quyidan yoki yuqoridan rivojlanib borishiga qarab «quyidan keksayish» va «yuqoridan keksayish» kabi turlarga ajratiladi:

- **«quyidan keksayish»** — bu tug'ilishning qisqarib borishi natijasida aholining yosh tarkibida bolalar salmog'ining kamayib, qariyalar salmog'ining esa ortib borishidir;
- **«yuqoridan keksayish»** — bu tug'ilishning kamayishi sharoitida keksa yoshdagi aholi o'rtasida o'limning qisqarishi, tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligining uzayishi hisobiga qariyalar salmog'ining ortib borishidir.

Aholi asosan tug'ilishning kamayishi hisobiga qariydi, ya'ni «quyidan» keksayish jarayoni sodir bo'ladi. Shu bilan birga, hozirgi davrda rivojlangan G'arb mamlakatlari va Yaponiyada tibbiyot sohasida erishilgan yutuqlar tufayli qariyalar orasida o'lim holatlari keskin kamaydi va aholining o'rtacha umr ko'rish muddati uzaydi. Buning natijasida aholining «yuqoridan» keksayish jarayoni boshlandi.

Aytish joizki, aholining keksayishi jarayonining rivojlanishi qtiyidagi qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib keladi:

- aholining iqtisodiy faolligini pasaytiradi;

- pensiya jamg'armasi zimmasiga pensiyalar to'lash harajatlarning benihoya og'ir yuki tushadi;
- qariyalarga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha mablag' sarflash, butun sog'hqni saqlash tizimini sifatli tarzda qayta qurishni talab qiladi;
- hali ishlashni istaydigan «yosh qariyalarni» ish bilan ta'minlash-
- nomoddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining tuzilmasiga ta'sir qiladi, ya'ni qariyalarning ehtiyojlariga muvofiq ravishda tovar va xizmatlar assortimentini o'zgartirishga tog'ri keladi.

Shunday qilib, aholining keksayishi aholi tarkibida qariyalar uhushining ortishi hisobiga kelib chiqadi va mazkur muammoga dahldor bo'lgan har bir mamlakat o'z iqlisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda keksalarning turmush farovonligini oshirishga harakat qiimoqda.

IKKINCHI BOB. ANDIJON VILOYATI AHOLISI YOSH-JINS TARKIBI VA AHOLI O'SISHI

II.1. Viloyat aholisi yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlar

Aholining yoshi va jinsini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Viloyat aholisining yoshi va jinsiy tarkibini aniq bilish mehnat resurslarini hisoblab chiqishga va kelajakda qancha aholi bo'lishligini bilishga yordam beradi. Yana shuni aytish o'rinliki, maktabgacha tarbiya muassasalarining, maktab yoshidagi bolalarning, nafaqaxo'rlarning hozirgi va kelajakdagi sonini aniqlash, turli jins va yoshdagi aholi uchun zarur bo'lgan keng iste'mol mollarni ishlab chiqarishni rejalashtirishni aniqlash imkonini beradi. Jinsiy va yosh tarkibga doir ma'lumotlarni bilish, kelgusida aholining takror barpo bo'linishi qanday sur'atda bo'lishini oldindan aytib berishni aniqlashga yordam beradi. Bu yuqoridagi ko'rsatkichlarni bilish ishlab chiqarish kuchlarini xududiy tashkil qilish va rivojlantirishni rejalashtirishga ham katta tasir ko'rsatadi.

Andijon viloyati aholisining jinsiy va yosh tarkibi o'ziga xos xususiyatga egadir. Inqilobdan oldingi davrlarda ijtimoiy-iqtisodiy tarixiy rivojlanish jarayonlar bilan bog'liq xolda quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan:

- erkaklar ayollarga nisbatan ko'pchilikni tashkil qilishi;
- oiladagi uy-ro'zg'or yumushlari asosiy qismini ayollar zimmasiga tushishi;
- qizlarni erta turmushga berishi;
- ko'p bolali onalar xamda tibbiy xizmat ko'rsatish va onalikni muhofaza qilishdagi qoloqlik ayollar o'rtasida o'limni yuqori darajada bo'lishiga olib kelgan.

O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibidagi ayrim xususiyatlar 1939 yildagi aholi ruyxati ma'lumotlarida ham o'z aksini topgan bo'lib, erkaklar 51,6 foiz, ayollar esa 48,4 foizni egallagan edi. Ikkinchi jaxon urushi oqibatlari xam aholining jinsiy tarkibiga ta'sir ko'rsatib, O'zbekistonda 1959 yili erkaklar jami adolining 48,0 foizini

tashkil qilgan edi. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistondagi aholining jinsiy tarkibidagi nomutanosiblik asta-sekin yo‘qola bordi.

Mustaqillik yillarida Andijon viloyatida 2000 yilga kelib 49,9 foizni erkaklar. 50,1 foizni ayollar tashkil qildi. Aholi tarkibidagi ortiqcha ayollarning asosiy qismi yuqori 20 yoshdan yuqoridagi ayollar xisobiga to‘g‘ri kelgan (9-jadval).

9-jadval

Andijon viloyati aholisi yosh va jinsiy tarkibi salmog‘i (2000 yil)

Yosh guruhi	Jami aholi	Erkaklar	%	Ayollar	%
0 – 4	264273	135529	12,4	128744	11,7
5 – 9	296250	151058	13,9	145192	13,2
10 – 14	270028	136694	12,5	133334	12,2
15 – 19	229068	115219	10,6	113849	10,4
20 – 24	198790	99871	9,2	98919	9,1
25 – 29	188171	93303	8,6	94868	8,7
30 – 34	161010	78596	7,2	82414	7,5
35 – 39	151956	74794	6,9	77162	7,0
40 – 44	118862	58629	5,4	60233	5,5
45 – 49	85091	42147	3,9	42944	3,9
50 – 54	45341	22416	2,0	22925	2,1
55 – 59	44201	22537	2,0	21664	2,0
60 – 64	47435	23114	2,1	24321	2,2
65 – 69	37447	17305	1,6	20142	1,8
70 – 74	24270	10911	1,0	13359	1,2
75 – 79	11511	4025	0,4	7486	0,7
80 – 84	5792	1596	0,1	4196	0,4
85	6695	2085	0,2	4610	0,4
Jami	2186191	1089829	100	1096362	100

Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzildi.


Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2000 yilda erkaklar 1089,8 ming tashkil qilgan bo‘lsa, ayollar esa viloyatda 1096,4 ming kishini tashkil etgan, yoki 6.5 ming kishi ortiqdir.

Viloyatdagi turli yoshdagi aholi yosh guruxlarining salmog‘i ham o‘ziga xos bo‘lib ularni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Andijon viloyatida aholining tabiiy o‘sishni yuqoriligi, aholining yosh tarkibiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Mustaqilikka erishgan dastlabki yillarda aholi tabiiy o'sish sur'atining yuqoriligi aholi tarkibida 0-14 yoshli bolalar salmog'ini yuqori bo'lishiga olib keldi. 2000 yilda 0-14 yoshli bolalar viloyat aholisini 38 foizini tashkil etgani holda 15-59 yoshdagi aholi 55,9 foiz hamda 60 yoshdan kattalar 6,1 foizni tashkil etgan (10-jadval).

10-jadval

Andijon viloyati aholisi yosh tarkibi o'zgarib borishi (2000-2014 yillar)



Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Andijon viloyatida 1000 aholiga nisbatan tabiiy o'sish 1989 yilga qaraganda (26,3 kishi) ancha pasaydi. 1999 yilda tug'ilish 19,6 ‰, o'lim koeffitsienti 4,9 ‰, tabiiy o'sish 14,7 ‰ga to'g'ri kelgan, 2008 yilda tug'ilish koeffitsienti 24,7 ‰, o'lim koeffitsienti 7,7 ‰, tabiiy o'sish esa 17,0 ‰ga to'g'ri kelgan. 2009 yil esa tug'ilish koeffitsienti 24,7 ‰, o'lim 4,9 ‰, tabiiy o'sish esa 19,8 ‰ga yetdi. Bundan ko'rinib turibdiki, 1989 yildan 1999 yilgacha bo'lgan davrda tabiiy o'sish ancha pasaygan va hozirgi kunga kelib tabiiy ko'payish bir necha promillega oshdi. 2014 yilda esa tug'ilish 24‰, o'lim esa 5,1‰ va tabiiy o'sish 18,9‰ ga teng bo'ldi. Shuning hisobiga umumiy aholiga nisbatan yosh va o'smirlar salmog'i kamaydi.

Aholi tabiiy o'sish sur'atining kamayishi natijasida 0-14 yoshli bolalar salmog'i kamayib bordi va 2014 yilda 27,8 foizni tashkil etdi. Kuzatilayotgan yillar mobaynida

qariyb 10% ga kamayganligi qayd etilmoqda. Bu esa o‘z navbatida 15-59 yoshdagi aholi salmog‘ini ortishiga olib keldi va 2014 yilda aholining ushbu guruhining salmog‘i 65,9 % ga ortdi. 60 yoshdan yuqori yoshdagi aholi salmog‘i esa qariyb o‘zgarishsiz qoldi va 6,3 % ni tashkil etdi. Aholi tabiiy o‘sish sur‘atini pasayib borishi bolalar salmog‘ini kamayib, kattalar salmog‘ini oshib borishi bilan bir qatorda jinsiy tarkibda xam o‘zgarishlarga olib keldi (11-jadval).

11-jadval

**Andijon viloyati aholisi yosh va jinsiy tarkibi salmog‘i
(2014 yil)**

YOsh guruhi	Jami aholi	Erkaklar	%	Ayollar	%
0 – 4	297942	154234	10,9	143708	10,3
5 – 9	257888	132975	9,4	124913	9
10 – 14	223569	115554	8,2	108015	7,8
15 – 19	276887	142012	10,0	134875	9,7
20 – 24	296255	151669	10,7	144586	10,4
25 – 29	266308	134954	9,5	131354	9,4
30 – 34	218972	110534	7,8	108438	7,8
35 – 39	195403	98375	6,9	97028	7
40 – 44	183961	91192	6,4	92769	6,7
45 – 49	160707	78235	5,5	82472	5,9
50 – 54	145855	71738	5,2	74117	5,3
55 – 59	105370	51485	3,7	53885	3,9
60 – 64	69807	33920	2,4	35887	2,6
65 – 69	32084	15361	1,1	16723	1,2
70 – 74	33339	15797	1,1	17542	1,2
75 – 79	20913	9061	0,6	11852	0,8
80 – 84	12167	4972	0,3	7195	0,5
85	8020	3016	0,2	5004	0,4
Jami					

Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

2000 yilda aholi tarkibida erkaklar 49,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2014 yilda erkaklar salmog‘i 50,5 % ga etdi. Ayollar salmog‘ining ortiqqligi 2000 yilda 25

yoshdan yuqori yoshda kuzatilgan bo'lsa, 2014 yilga kelib 40 yoshdan yuqori yoshdagi aholi qatlamiga to'g'ri kelmoqda.

Aholi tarkibida kuzatilayotgan o'zgarishlarni aholining yosh va jins piramidasida aniq ifodalash mumkin (1 diagramma).

1 diagramma

Andijon viloyati aholisi yosh-jins piramidas (2000 yil)




Diagramma Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Andijon viloyati aholisi yosh-jins piramidasi (2014 yil)




Diagramma Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Andijon viloyati aholisi yosh va jins piramidasi tahlili shuni ko'rsatadiki, 2000 yilda aholi soni eng ko'p bo'lgan yosh guruhi 5-9 va 10-14 yosh guruhlariga to'g'ri kelsa, 2014 yilda aholi soni eng ko'p bo'lgan yosh guruhi 20-24 yosh guruhiga to'g'ri keldi. Ushbu holat dastlabki mustaqillikka erishgan davrda tu'gilish surati yuqori bo'lganligidan dalolat beradi.

II.2. Aholi yosh-jins tarkibining hududiy tafovutlari

Aholining jinsiy va yosh tarkibi muhim demografik ko'rsatkich hisoblanadi. Bunda mehnat resursining, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning, nafaqaxo'rlarning hozirgi va kelajakdagi soni ayniqsa, ahamiyatlidir. Aholining jinsiy va yosh tarkibi istiqbolini belgilash, aholining takror barpo qilish uchun ham zarur ko'rsatkichdir. Masalan, agar jinslar nisbatan teng yoki yaqin bo'lsa, aholi tarkibida yosh avlod salmog'i katta bo'lsa, nikohlanish va tug'ilish (tabiiy o'sish) imkoniyati katta bo'ladi.

12-jadval

Andijon viloyati shahar va tumanlarda aholining jinsiy tarkibi

№	Shahar va tumanlar nomi	Doimiy aholi soni (kishi)					
		Jami		Erkaklar		Ayollar	
Viloyat bo'yicha		2596,5	100%	1299,2	100%	1297,2	100%
1	Andijon shahar	379,4	14,6	188,7	14,5	190,6	14,7
2	Asaka shahar	58,3	2,2	29,1	2,2	29,2	2,3
3	Xonobod	37,7	1,5	18,5	1,4	19,1	1,5
Tumanlar							
1	Andijon	215,5	8,3	107,4	8,3	108,1	8,3
2	Asaka	205,6	8,0	102,4	8,0	103,1	8,0
3	Baliqchi	161,4	6,2	81,3	6,3	80,1	6,2
4	Bo'z	58,2	2,2	29,0	2,2	29,2	2,3
5	Buloqboshi	116,9	4,5	58,7	4,5	58,2	4,5
6	Izboskan	198,8	7,7	100,0	7,7	98,8	7,6
7	Jalaquduq	155,6	6,0	78,2	6,0	77,4	6,0
8	Marhamat	141,5	5,5	71,0	5,5	70,5	5,4

9	Oltinko`l	145,6	5,6	72,3	5,6	73,3	5,7
10	Paxtaobod	158,2	6,1	79,2	6,1	78,9	6,1
11	Qo`rg`ontepa	176,7	6,8	88,3	6,8	88,4	6,8
12	Ulug`nor	50,4	2,0	25,3	2,0	25,1	2,0
13	Xo`jaobod	92,1	3,5	46,4	3,6	45,7	3,5
14	Shahrixon	243,7	9,4	122,4	9,4	121,3	9,3

Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Andijon viloyati shahar va tumanlarida aholining jinsiy tarkibi bo'yicha bir oz farq bor. Yuqoridagi 12-jadvalga ko'ra Baliqchi, Buloqboshi, Jalaquduq, Izboskan, Marhamat, Paxtaobod, Ulug`nor, Xo`jaobod, Shahrixon tumanlarida erkaklar ayollarga nisbatan son jihatdan bir oz ustunlikka ega. Masalan, Baliqchi tumanida erkaklar ayolardan 1266 kishiga, Buloqboshida 432 kishiga, Jalaquduq tumanida 746 kishiga, Izboskan tumanida 1182 kishiga, Marhamat tumanida 557 kishiga, Paxtaobod tumanida 359 kishiga, Ulug`nor tumanida 168 kishiga, Xo`jaobod tumanida 702 kishiga, Shahrixon tumanida 1446 kishiga ko'p. Andijon, Asaka, Xonobod shaharlarida va Andijon, Asaka, Bo`z, Oltinko`l, Qo`rg`ontepa tumanlarida ayollar erkaklarga nisbatan son jihatdan bir oz ustunlikka ega.

Andijon viloyati shahar va qishloq tumanlari aholisi jinsiy tarkibida sezilarli tafovut kuzatilmaydi. Shunisi e'tiborga molikki, 2000-2010 yillar mobaynida shaharda ayollar erkaklarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan va aksincha qishloq joylarda erkaklar soni ayollardan ustun ekanligi kuzatildi. 2011 yildan e'tiboran qishloq aholi punktlarida ham ayollarning erkaklardan son jihatdan ustun ekanligini ko'rish mumkin (13-jadval).

**Andijon viloyati shahar va qishloq aholi punktlari jinsiy tarkibidagi
o'zgarishlar**


Yillar	Shahar aholisi			Qishloq tumanlari		
	Jami	Erkaklar	Ayollar	Jami	Erkaklar	Ayollar
2000	657569	324749	332820	1528622	765080	763542
2001	665538	328689	336849	1550957	777120	773837
2002	673434	332762	340672	1573999	789149	784850
2003	680634	336473	344161	1599100	802089	797011
2004	687056	339875	347181	1622051	814019	808032
2005	693643	343394	350249	1649059	827718	821341
2006	699808	346571	353237	1676100	841647	834453
2007	707187	350396	356791	1702643	855053	847590
2008	716883	355459	361424	1734314	871129	863185
2009	1338939	667539	671400	1160958	583943	577015
2010	1358361	677733	680628	1190686	598883	591803
2011	1420056	713307	706749	1252235	632447	619788
2012	1436447	722044	714403	1277757	645458	632299
2013	1453872	731657	722215	1302515	657726	644789
2014	1476296	743819	732477	1329151	671265	657886

Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Andijon viloyati yosh tarkibidagi o'zgarishlar shahar va qishloq joylarda bir hil umumiylikka va tafovutga egadir (14-15 jadvallar). Umumiylik jihatidan shundan iboratki, shahar hamda qishloq aholi punktlarida 2000-2014 yillar mobaynida 0-14 yoshli bolalar salmog'i kamayib mehnat qilish yoshidagi aholi salmog'ini ortib borishini kuzatish mumkin.


Shuningdek, qishloq joylarda 2000-2014 yillar davomida 0-14 yoshli bolalar salmog'i shahar aholi manzilgahlariga nisbatan yuqori bo'lib kelgan. Bu esa qishloq joylarda tug'ilish surati shaharga nisbatan yuqori bo'lib kelganligini bildiradi. Shuningdek, qishloq aholi punktlarida ham keyingi yillarda tug'ilish surati pasayib borishini ham 15 jadvaldan aniqlash mumkin.

Andijon viloyat shahar aholisi yosh tarkibi o'zgarishi (2000-2014 yillar)



Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Andijon viloyat qishloq joylar aholisi yosh tarkibi o'zgarishi (2000-2014 yillar)



Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Andijon viloyati aholisi yosh tarkibi aholi tabiiy o'sishi bilan bog'liq. Umuman viloyat aholisi jinsiy va yosh tarkibi

demografik nuqtai-nazardan qulay bo'lib, uning kelajakdagi demografik taraqqiyotiga ijobiy omil bo'lib hizmat qiladi.

II.3. Aholi yosh- jins tarkibi o'zgarishi va aholi takror barpo bo'lishi

Aholining takror barpo bo'lishi jamiyat davomiyligini ta'minlovchi asosiy jarayon bo'lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir. Aholining takror barpo bo'lishi jamiyatning mavjudligini, aholi sonini o'sib borishini ta'minlovchi asosiy biologik jarayon bo'lib, u bevosita ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq holda bo'ladi.

Aholini o'rganishning nazariy asoslariga yondoshuvlar moddiy ne'matlar ishlab chiqarishning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatidan kelib chiqadi.

Asosiy ishlab chiqaruvchi kuch bo'lgan odamlar moddiy boylikni yaratadilar. Shunday ekan, aholi soni, ayniqsa mehnatga layoqatlilar soni kelajakda iqtisodiy rivojlanish va boyliklar hajmi qancha bo'lishini belgilab beradi.

Odamning ko'payishi bilan bog'liq shart-sharoitlar, ijtimoiy organizmlarning tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Demak, demografik qonuniyatlarni har bir ijtimoiy organizm uchun alohida-alohida o'rganish zarur bo'ladi. Aholining rivojlanish qonuniyatlari barcha davrlarda, birinchidan, mehnatga layoqatli aholidan ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalanish harakteri bilan belgilanadi, ikkinchidan, aholi kengaygan takror barpo bo'lish tipi bilan bog'liq bo'ladi.

Aholining kengaygan takror barpo bo'lishi aholi harakati 3 turining birlikda uzluksiz takrorlanib turishida namoyon bo'ladi. Bu tabiiy, makoniy (hududiy) va migratsion hamda ijtimoiy harakatlarning bir butunligida qaralishini bildiradi. Uchala ko'rinishdagi harakatda ham aholining kengaygan takror barpo bo'lishining sajiyasi jonli ishlab chiqaruvchi kuch bilan mehnatkashlarning ushbu iqtisodiy tuzumda tutgan va davlatning ijtimoiy siyosatiga bog'liq bo'ladi. Chunki, demografik siyosat davlat

ijtimoiy siyosatining bir qismidir. Bu o`rinda sog`liqni saqlash sohasi, ta`lim-tarbiya, fizkultura va sport kabi sohalar rivojiga qanday e`tibor berilishi g`oyat muhimdir.

Agar aholining tabiiy harakati natijasidagi takror barpo bo`lishini o`rganish kerak bo`lsa, masalaning biologik omillariga, genetika sohasiga, tug`ilish, oila qurish, o`lim, umrning uzunligi, oilaning ajralib ketishi kabi holatlarga aloqador ko`rsatkichlar majmui bilan ifodalanadi.

Insoniyat taraqqiyot tarixi shuni ko`rsatadiki, inson hayotida shart-sharoitlarning o`zgarishi tug`ilishning o`zgarishiga, ya`ni oiladagi bolalar sonining o`zgarishiga va oxir-oqibatda aholi sonining o`sish sur`atlari tezlashuviga (yoki sekinlashuviga) sabab bo`ladi.

Mamlakatdagi aholi sonining tarkibi va o`sish jarayonlarini o`rganish, uning rivojlanish qonuniyatlarini hamda mehnat bozoriga ta`sir ko`rsatadigan omillarni teranroq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, demografik omillarni o`rganish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur`atlari aholini o`sish sur`atlariga mos kelishi yoki kelmasligini, uning mehantga layoqatli qismining iqtisodiy tarmoqlarida samarali bandligini bilish uchun muhim hisoblanadi.

Demografiyada aholining yosh-jins piramidalaridan foydalanishning eng muhim jihatlaridan biri-bu aholining takror barpo bo`lishi va yosh tarkibining o`zaro aloqadorlikdagi tahlilidir.

Andijon viloyati aholisining yosh-jins piramidasida 2000 yilda bo`rtiq shaklga ega bo`lib, mazkur yilda aholi tarkibida eng katta salmoqqa ega yosh guruhi 5-9 yosh guruhi, keying o`rinlarda 10-14 va 0-4 yosh guruhlari katta salmoqqa ega. 2014 yilda esa eng ko`p aholi 20-24 va 0-4 yosh guruhiga to`g`ri kelmoqda (1-2 diagramma).

Mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda bozor munosabatlariga o`tish sharoitida yillar davomida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlarida o`ziga hos

o'zgarishlar ro'y berayotganligi, halqning munosib turmush sharoitini yaratishga intilishi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligining ortishi, har bir oila o'z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda farzandlar tug'ilishini nazorat qilish kabi ijtimoiy demografik omillar viloyatda tug'ilish korsatkichini sekin asta pasayishiga olib keldi. So'nggi yillarda tug'ilish sur'atini asta sekin ortib borayotganini kuzatish mumkin (16-jadval).

16-jadval

Andijon viloyati aholisi tabiiy o'sishi

Yillar	Doimiy aholi soni	Tug'ilish		O'lim		Tabiiy o'sish	
		soni	‰	soni	‰	Tabiiy o'sish	‰
1990	1795000	59900	34,0	10400	5,9	49500	28,1
2000	2157700	46100	20,5	11700	5,2	34400	15,3
2002	2279700	43100	18,9	11200	5,2	31200	13,7
2004	2 309 107	46 755	20,1	11 331	4,9	35 424	15,2
2005	2 342 702	47 522	20,1	12 213	5,2	35 309	15,0
2006	2 375 908	48 298	20,2	12 519	5,2	35 779	15,0
2007	2 409 830	55 070	22,7	12 481	5,1	42 589	17,5
2008	2 451 197	62 043	25,1	12 576	5,1	49 467	20,0
2009	2 499 897	62 013	24,6	12 135	4,8	49 878	19,8
2010	2 549 047	59 953	23,3	12 862	5,0	47 091	18,3
2011	2 672 291	56 663	21,0	13 933	5,2	42 730	15,9
2012	2 714 204	58 277	21,3	14 160	5,2	44 117	16,1
2013	2 756 387	64 239	23,1	14 188	5,1	50 051	18,0
2014	2 805 447	67 905	24,0	14 519	5,1	53 386	18,9

Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

1990-2002 yillar mobaynida Andijon viloyatida tug'ilish koeffisiyenti 34,0‰ dan 18,9‰ ga pasayganini ko'rish mumkin. Undan keying yillarda tug'ilish koeffisiyenti ortib bordi va 2014 yilda 24‰ ni tashkil etdi.

Mustaqillik yillarida tug'ilish suratini yuqori bo'lishi va tug'ilganlar sonini ko'p bo'lishi Andijon viloyati aholisini o'rtacha nikohga kirish yoshi 22 yosh⁸ ekanligini hisobga olinsa hozirgi kunda nikohga kiruvchilar sonini ortib borishiga olib keladi. Bu esa tug'ilish suratini ortishiga asosiy omil hisoblanadi. Aholi tabiiy o'sishini ortib borishida 1-yoshgacha bo'lgan go'daklar o'limini keskin kamayishi ham asosiy omil sifatida qaraladi.

Keyingi yillarda viloyatda tug'ilish va tabiiy o'sish surati ortib borishi bilan bir qatorda aholi yosh tarkibida 0-14 yoshli bolalar salmog'i sezilarli darajada kamayishi kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- ✓ Andijon viloyatida o'lim surati keskin kamayishga erishildi. M: 1989 yilda o'lim koeffitsiyenti 7% ni tashkil etgan bo'lsa 2014 yilda 5,1% ni tashkil etdi.
- ✓ O'lim suratini kamayib borishi aholini o'rtacha yashash davrini ortib borishiga asosiy omil hisoblanmoqda.

Andijon viloyatida keyingi yillarda tug'ilish va tabiiy o'sish surati yuqorilicha saqlanib qokishi kutiladi. Viloyatda 2000-2013 yillar mobaynida nikohga kiruvchilar soni 14 mingdan 30 mingga, qariyb 2 barobardan ko'proq ortganini etiborga olinsa, bu holat keyingi yillarda ham tug'ilish suratiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan izchil islohatlar negizida aholi turmush farovonligi ortib bormoqda, aholining o'lim surati kamayib, o'rtacha yashash davri yil sayin ortib bormoqda. 2000-2013 yillar davomida Andijon viloyatida aholining o'rtacha yashash davri 71 yoshdan 72,1 yoshga ortganini ko'rish mumkin. 85 yoshdan yuqori yoshdagi aholining o'rtacha yashash davomiyligi 2000 yilda 4,6 yildan 2013 yilda 7,2 yoshdacha ortganichi hisobga

⁸ www.gender.stat.uz

olinsa, viloyatdan keyingi yillarda ham aholini o'rtacha yashash davri ortib boradi.

HULOSA

Demografik jarayonlar, hususan aholining takror barpo bo'lishida aholining yosh va jinsiy tarkibini o'rganish ahohida ahamiyat kasb etadi. Aholi tarkibida erkaklar va ayollar tengligi yoki mutanosibligi ularning nikohga kirishiga va oilalar tarkib topishiga qulay vaziyat yaratadi. Lekin har doim ham erkaklar va ayollar salmog'i teng bo'lavermaydi. Ststistik ma'lumotlarga qaraganda Andijon viloyatida tug'ilgan har 100 ta qiz farzandga 107 ta o'g'il bola to'g'ri keladi. 2014 yilda erkaklar 40 yoshgacha son jihatdan ayollardan ko'pchilikni tashkil etdi, keying yosh guruhlarida ayollar erkaklardan son jihatdan ko'pchilikni tashkil etganlini qayd etilmoqda.

Andijon viloyatida 2000 yilga kelib 49,9 foizni erkaklar, 50,1 foizni ayollar tashkil qilgan. Aholi tarkibidagi ortiqcha ayollarning asosiy qismi yuqori 25 yoshdan yuqoridagi ayollar hisobiga to'g'ri kelgan.

2000 yilda erkaklar 1089,8 ming tashkil qilgan bo'lsa, ayollar esa viloyatda 1096,4 ming kishini tashkil etgan yoki 6.5 ming kishi ortiqdir.

Viloyatdagi turli yoshdagi guruxlarining salmog'i ham o'ziga xos bo'lib ularni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Andijon viloyatida aholining tabiiy o'sishni yuqoriligi, aholining yosh tarkibiga katta ta'sir ko'rsatadi. XX asr 90-yillarida aholi tabiiy o'sish sur'atining yuqoriligi aholi tarkibida 0-14 yoshli bolalar salmog'ini yuqori bo'lishiga olib keldi. 2000 yilda 0-14 yoshli bolalar viloyat aholisini 38 foizini tashkil etgani holda 15-59 yoshdagi aholi 55,9 foiz hamda 60 yoshdan kattalar 6,1 foizni tashkil etgan.

Andijon viloyatida har ming aholiga nisbatan tabiiy o'sish 1989 yilga qaraganda (26,3 kishi) ancha pasaydi. 2000 yilda tug'ilish 19,6 %, o'lim koeffitsienti 4,9 %, tabiiy o'sish 14,7 % ga to'g'ri kelgan. Bundan ko'rinib turibdiki, 1989 yildan 2000 yilgacha bo'lgan davrda tabiiy o'sish ancha pasaygan. 2014 yilda esa tug'ilish

24%, o'lim esa 5,1% va tabiiy o'sish 18,9% ga teng bo'ldi. Natijada umumiy aholiga nisbatan yosh va o'smirlar salmog'i kamaydi va hozirgi kunga kelib tabiiy ko'payish 5 % oshdi.

Aholi tabiiy o'sish sur'atining kamayishi natijasida 0-14 yoshli bolalar salmog'i kamayib bordi va 2014 yilda 27,8 foizni tashkil etdi. Kuzatilayotgan yillar mobaynida qariyb 10% ga kamayganligi qayd etilmoqda. Bu esa o'z navbatida 15-59 yoshdagi aholi salmog'ini ortishiga olib keldi va 2014 yilda aholining ushbu guruhining salmog'i 65,9 % ga ortdi. 60 yoshdan yuqori yoshdagi aholi salmog'i esa qariyb o'zgarishsiz qoldi va 6,3 % ni tashkil etdi. Aholi tabiiy o'sish sur'atini pasayib borishi bolalar salmog'ini kamayib, kattalar salmog'ini oshib borishi bilan bir qatorda jinsiy tarkibda ham o'zgarishlarga olib keldi.

2014 yilda erkaklar salmog'i 50,5 % ga etdi. Ayollar salmog'ining ortiqqligi 2000 yilda 25 yoshdan yuqori yoshda kuzatilgan bo'lsa, 2014 yilga kelib 40 yoshdan yuqori yoshdagi aholi qatlamiga to'g'ri kelmoqda.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, mehnat qilish yoshidagi aholi qatlami kelgusida aholini tarkibida keksalar salmog'i ortib borishiga olib keladi. Bu holat aholi kelgusida aholining o'rtacha umr ko'rish davri ortib borishiga olib keladi.

Aholini, shu jumladan, aholi yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlarni o'rganish quyidagi fikr va mulohazalarni ilgari surish imkonini beradi:

-aholi yosh tarkibida mehnat yoshidagi aholi salmog'ini ortib borishi aholini ish bilan ta'minlash masalasini yanada dolzarbligini oshiradi. YAngi ish o'rinlari yaratishni taqazo etadi;

- moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni aholi yosh tarkibini o'zgarishiga muvofiq tarzda o'zgartirib borish;

-aholining oʻrtacha umr koʻrishini ortib borishi, kelgusida aholi yosh tarkibida keksalar salmogʻini ortishiga olib keladi. Bu esa ijtimoiy muhofazalashga oid chora-tadbirlar tizimini takomillashtirish, amaliy ishlarni yanada rivojlantirishni taqazo etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "O'zbekiston ijtimoiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lidan" T., "O'zbekiston", 1995, 11 bet
2. Karimov I. A. Yuksak manaviyat- yengilmas kuch . –T.: "Manaviyat", 2008
3. Abdurahmonov Q. Abduramanov Q. "Demografiya" Toshkent, 2010
4. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" T. O'qituvchi, 1994 y
5. Asanov G. Sotsial iqtisodiy geografik lug'at. Toshkent, "O'qituvchi" 1990 y
6. Bo'rieva M. "Demografiya asoslari" (ma'ruzalar matni). T. 2001 y.
7. Bo'riyava M. "O'zbekistonda oila demografiyasi" T.: 1997 y
8. Vahobov H., Tillaboeva M. "Iqtisodiy geografiya asoslari". T. O'qituvchi, 2001 y.
9. Nazarov A. «Ijtimoiy geografiya». T.: Universitet, 2000 y.
10. Qayumov A. Yakubov O'. "Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" Toshkent, 2010
11. Qodirov R. B. Aholi va mehnat resurslari. – Andijon, 2010.
12. Statistic to'plam. O'zbekiston aholisi 2014. T.: 2014

Internet saytlari:

1. www.stat.uz
2. www.and.stat.uz
3. www.gender.stat.uz
4. www.geografiya.ru
5. www.referat.arxiv.uz
6. www.en.wikipediya.org

Foydalanilgan manbalar

1. Andijon viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari
2. Andijon viloyati hokimligi ma'luotlari